



HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA PARALLELIZMNING QO'LLANILISHI

Xudoynazarova Bahoroy Uktam qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo
xalqlari tillari va madaniyati instituti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda parallelizm va u bilan bog'liq takror hodisalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, o'zbek she'riyatida, xususan, Halima Xudoyberdiyeva ijodida takrorning turli ko'rinishlari – anafora, takrir, mukarrar va epifora vositasida badiiy ifoda imkoniyatlari tahlil qilingan. Shoir she'rlarida parallelizm va takrorlarning emotsional-ekspressiv ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: parallelizm, takror, leksik takror, grammatik takror, anafora, epifora, mukarrar, takrir.

Tilshunoslikda parallelizm hodisasi bilan bog'liq bo'lgan takror, repriza, intensiv, pleonazm, parallelizm, leksik-grammatik parallelizmlar, tavgologiya kabi terminlarga duch kelamiz.

Haqiqatan ham nutqimizda takrorning turli tiplari bordir. Shuning uchun leksik takrordan (tez-tez, ayta-ayta, qip-qizil, tep-tekis) grammatik takrori (ov ovladi; hammasi-hammasi; birma-bir o'tdi; kundan kun; kitobdan kitobga kabilarni) farqlash kerak.

Bozorboy O'rinboyev takrorning birinchi formasidan ikkinchisini farqlash maqsadida leksik-grammatik parallellar yoki parallelizm terminini qo'llagan:

"Turkiy tillardagi parallelizmlar haqida dastlabki ma'lumot P.M. Melioranskiyda uchratamiz. Takrorning xususiyatlari ozarboyjon tilida atroflicha o'rganilgan.

Parallelizmlar so'zlashuv nutqi strukturasida emotsionallik oshiruvchi vositalardan biridir. Parallellarning xarakterini tekshirish muhim muammolardan biri hisoblansa ham, tilshunosligimizda juda kam o'rganilgandir. Parallelizmlarning ba'zi tomonlari yoritilgan ishlarda ham turli-tuman fikrlar mavduddir.

Ayrim tilshunoslar parallelizmlar fikrni ta'kidlab ko'rsatuvchi va emotsiyani kuchaytiruvchi vosita deb ko'rsatadilar.

Tilshunos V.P.Vorobev ham yuqoridagi kabi fikrni bayon etish bilan birga, parallelizmlar nutqiy oqimning uzluksizligini ifodalashga xizmat qiladi va bog'lovchilar bajargan funksiyani bajaradi, - deydi. Prof. A.F.Efimov esa, parallelizmlar boshqa grammatik vositalar qatori so'zlashuv nutqi spetsifikasini belgilovchi vositalardan biri deb hisoblaydi. A.I.Anikin,



R.M.Samarinlar parallelizmlarni stilistik vosita deb qaraydi. Xudi shu xildagi qarashni A.Rustamov, S.To‘rabekova, B.A.Kuxarenko ishlarida ham uchramiz.

Prof. V.Vinogradov, V.A.Kovalev, M. Alaviya ishlarida parallelizmlar badiiy tasvir vositasi sifatida qaraladi va ular kishi ichki kechinmalarini ko‘rsatishga yordam beradi, deb uqtiriladi.

A.Ahmedov esa N.Kalitin fikrlariga asoslanib, parallelizmlarni leksik, sintaktik va stilistik hodisa deb qaraydi. D.V.Bubrix, J.Maruzo, L.I. Royzenzon, V.G.Gak, I.P.Svyatogor, E.A.Ivanchikova, X.Abdurahmonovlar fikricha, parallelizmlar grammatik va stilistik ahamiyatga egadir." [1]

Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida badiiy tasvir vositalari o‘ziga xos jilolanadi. Ayniqsa, shoira she‘riyatida parallelizmlar orqali fikr teranroq, ta‘sirchanroq ifodalangan, she‘r g‘oyasi va shakli o‘rtasidagi mutanosiblik ta‘minlangan. Uning she‘rlarida takrorlarning go‘zal namunalarini uchramiz. Leksik takrorlar she‘r ta‘sirchanligini ta‘minlaydi. Bunday ta‘sirchanlik shoira she‘rlarida anafora, mukarrar, takrir, epifora takrorlari vositasida namoyon bo‘lgan.

Shunchaki yozmoqqa ko‘ngil to‘lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo‘lim.
Shunchaki yozmoqqa chidab bo‘lmaydi,
Shunchaki yozmoq bu shoirga o‘lim. [4;7]

Halima Xudoyberdiyeva yuqorida keltirib o‘tgan bandda leksik takrorning anafora usulidan mohirona foydalanilgan. Anafora bu she‘riy misralarning boshida ohangdosh so‘zlarning takrorlanib kelishidir. Bu bandda anafora orqali she‘rning ta‘sirchanligi yanada oshgan.

Yuraklarga o‘t bo‘lib kirib,
O‘zing ham kuy, kuyla kuydirib. [4;18]

Yuqoridagi misralarda takrir san‘atidan foydalanilgan. Takrir arabcha “takror” so‘zidan olingan bo‘lib, u she‘riy asarda so‘zning turli shakldagi takroridan iborat.

Bo‘zto‘rg‘ayday bo‘zlasang bo‘zla-bo‘zla,
tto‘rg‘ayim,

Intiq sog‘inchlaringni so‘zla-so‘zla, to‘rg‘ayim,
Chappar urib izlasang, izla-izla, to‘rg‘ayim,
Umrin tongotarida. [4;34]

Yuqoridagi misralarda mukarrar dan ustalik bilan foydalanilgan. Mukarrar badiiy san‘atlarning takror usullaridan biri bo‘lib bunda takroriy so‘zning qaytarilishi kuzatiladi. Mukarrar so‘zi “qayta-qayta”, “ust-ustiga” ma‘nolarni ifodalaydi. Mukarrar takroriy so‘zning misra bayt yoki bandda takrorlanishidir. Ma‘lumki, juft va takroriy so‘zlar alohida-alohida tushunchalardir. Juft so‘z bir



turkumga oid ikki soʻzning takror qoʻllanilishi natijasida yuzaga keladi. Bunda qoʻllangan takroriy soʻz shu misraning oʻzida, bayt yoki bandda takrorlanishi mumkin. Shuningdek misra, bayt, bandda ikki xil shakldagi takroriy soʻz qoʻllanilishi ham mukarrar takrorini yuzaga keltiradi. Bunda keltirilgan “boʻzla-boʻzla”, “soʻzla-soʻzla”, “izla-izla” yordamida sheʼrning mazmun mohiyati boʻrttirib koʻrsatilmoqda.

Sizni sevgach men chamanlar, lolalarga uchragum
Omad kelgan, aʼlolardan aʼlolarga uchragum.
Bilmadim, bu ishq olami baxtmidir yo musibat,
Qoʻrqamenkim, tagʻin qancha balolarga uchragum.

[4;24]

Halima Xudoyberdiyeva yuqorida keltirib oʻtgan sheʼri orqali takrorning epifora usulidan foydalangan. Epifora misralar oxiridagi tovush, soʻz yoki soʻz birikmasi takroridan iborat. Epifora qatʼiy tizimli takror boʻlib, misrada kelish oʻrniga koʻra anafora ziddir. Chunki anafora misra boshidagi soʻz yoki soʻz birikmasi takrori boʻlsa, epifora misra oxiridagi til birligi takroridir. Epifora takrorning boshqa turlari singari hozirgi zamon oʻzbek sheʼriyatida keng qoʻllanilmoqda. Misralarda keltirilgan “uchragum” soʻzi epifora takrorini yuzaga keltirgan. Bandda “uchragum” soʻzi uch oʻrinda qoʻllangan. Bu esa sheʼriy misralarning oʻziga xos jozibasini taʼminlagan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, parallelizm yoki takror hodisalari nutqning taʼsirchanligini oshiruvchi muhim stilistik vositalardir. Halima Xudoyberdiyeva sheʼriyatida bu vositalar mahorat bilan qoʻllanib, fikrning chuqurroq va obrazli ifodalanishiga xizmat qilgan. Shoiras asarlarida anafora, epifora, takrir va mukarrar kabi takror turlari orqali badiiylik kuchaytirilgan, sheʼrlarning ohangdorligi va emotsional taʼsiri yanada oshirilgan. Bu esa uning ijodini oʻzbek adabiyotida alohida ahamiyatli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси. – Самарқанд: СамДУ, 2009. – 111 Б.
2. No'monova M. Hamid Olimjon sheʼriyatida leksik takrorlar. Academic research in educational sciences, 2021
3. Allaberganova D. Omon Marjon sheʼriyatida sintaktik parallelizmning qoʻllanilishi. Academic research in modern science
4. Halima Xudoyberdiyeva. - Toshkent: Akademnashr, 2020